



## TAMADDUN NURI jurnali

Ilmiy, ijtimoiy-falsafiy, madaniy-ma'rifiy, adabiy-badiiy jurnal

MUASSISLAR: Beruniy tuman hokimligi

"Tafakkur-tamaddun" OOO

"Beruniy avlodlari" jamoat fondi

HAMKORLARIMIZ:

O'zRFA Qoraqalpog'iston bo'limi

Qoraqalpoq davlat universiteti

Urganch davlat universiteti

TAHRIR HAY'ATI:

BOSH MUHARRIR:

Munavvara KURBANBAYEVA

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Anvar ALLAMBERGENOV

BO'LIM MUHARRIRI:

Muqaddas KURBANBAYEVA

Akmal SAIDOV, y.f.d., prof., akad.

Qahramon QURONBOYEV, s.f.d., prof.

Almagul BAYRIYEVA, s.f.d., (DSc)

Zabixulla SAIPOV, s.f.n., (PhD)

Zuhra REYMOVA, y.f.d., (DSc)

Karlig'ash UMAROVA, y.f.d., (DSc)

Xælil ismayil o'g'lu ismayilov, t. f. d, prof

Anvar ABDULLAYEV, t.f.f.d, dots.

Gavhar DURDIYEVA, arx.f.d., prof.

Makset KARLIBAYEV, t.f.d., k.i.x.

Kozimbek TUXTABEKOV, t.f.d., (PhD)

Umid BEKMUHAMMAD, t.f.d., (PhD),k.i.x.

Konul Bunyadzoda, falsafə fanlari doktoru

Azərbaycan Milli Elmlər Akademiyasının

(AMEA) müxbir üzvü

Baxtiyor KARIMOV, fal.f.d., prof.

Marat NIYOZIMBETOV, fal.f.d.

Alima BERDIMURODOVA, fal.f.d.

Zarifboy DO'SIMOV, fil.f.d., prof.

Olmos ULVI Binnatova , f.f.d., prof.

Doniyor YULDASHEV, fil.f.d (DSc)

Sayyora SAMANDAROVA, fil. f.n, dotsent

Bekposhsha RAXIMOVA, fil.f.n, dots (PhD)

Azamat PRIMOV, fil.f.n, dots (PhD)

Vahob RAHMONOV, f.f.n.,dots

Farrux Abbas oglu Rustamov, p.f.d, prof.

Qozoqboy YO'LDOSHEV, p.f.d.,prof.

Safo MATJONOV, p.f.d., prof.

Qaxramon IBADULLAYEV, p.f.d., (DSc)

Masharib ABDULLAYEV, s.f.f.d., (PhD), k.i.x.

Nilufar KOSHANOVA, ped.f.f.d., (PhD)

Odilbek RADJAPOV, fal.f.f.d., (PhD)

G'ayrat MAMBETKADIROV, s.f.d.

Rana Hamid qizi Qadirova, psixol.f.d., prof

Nargis ATABAYEVA, psixol.f.d., (DSc)

Dilafruz QARSHIYEVA, psixol.f.d., (DSc)

Qosimboy QABULOV, psixol.f.d., (DSc)

## JAMOATCHILIK KENGASHI:

Sirojiddin SAYYID

Muhammad ALI

Kengesboy KARIMOV

Iqbol MIRZO

Qurban SHONIYOZOV

O'rozboy ABDURAHMONOV

Murotboy JUMANOV

Adabiy maslahatchi:

Guliston MATYOQUBOVA

Rassom:

Alibek ABDURAHMONOV

Sahifalovchi-bezovchi: G'iyosiddin O'NAROV

Manzilimiz: Qoraqalpog'iston Respublikasi,

Beruniy tumani.

Web-sayt: <https://jurnal.tamaddunnuri.uz>

e-mail: [tamaddunnuri1@gmail.com](mailto:tamaddunnuri1@gmail.com).

Telegram kanali: <https://t.me/tamaddunnuri>

Tel.: (+99888) 036 00 55, (+99897) 355 75 40.

Qog'oz bichimi 60x84 %. Nashriyot hisob tabog'i 6,5.

Indeks – 960. ISSN 2181-8258. "ADAD PLYUS" MCHJ

bosmaxonasida chop etildi. Adadi 300 dona.

Bosishga 2024-yil 30-sentabrda ruxsat etildi.

Toshkent shahri, Chilonzor ko`chasi, 28-uy. 2024-yil, 9-son (60).

Ushbu son "Tamaddun nuri" jurnali tahririyatining kompyuterida sahifalandi. Buyurtma №24.

Jurnaldan ko'chirib bosilganda "Tamaddun nuri" dan olindi deb izohlanishi shart. Matn hamda reklamalardagi ma'lumotlarning to'g'riligi uchun mualliflar mas'uldir. Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar tahrirlanadi, taqriz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.



"Tamaddun nuri" jurnali Google Scholar bazasida indekslanadi. Bu esa jurnalning ilmiy nufuzini oshirish va mualliflarning ilmiy ishlarini keng miqyosda targ'ib qilishga yordam beradi. Google Scholar orqali tadqiqotchilar va olimlar "Tamaddun nuri" jurnalda chop etilgan maqolalarni qidirib topish va ularga havola berish imkoniyatiga ega bo'lishadi.



Crossref

Crossref DOI

Tahririyat Crossref DOI ning rasmiy a'zosi hisoblanadi va 10.69691 DOI prefiksiga ega. Har bir nashr va ilmiy maqolaga individual Crossref DOI raqami beriladi.

BIZNI IJTIMOIY TARMOQLARDA QUYIDAGI MANZILLARDA KUZATING:





## journal THE LIGHT OF CIVILIZATION

Scientific, socio-philosophical, cultural and educational, literary and artistic magazine  
Founders: Beruniy District Municipality  
"Tafakkur-tamaddun" OOO  
Public Foundation "Descendants of Berunius"  
Our colleagues: Academy of Sciences of the Republic of Uzbekistan Karakalpakstan division  
Karakalpak State University  
Urgench State University  
EDITORIAL BOARD:  
EDITOR-IN-CHIEF:  
Munavvara KURBANBAEVA  
DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:  
Anvar ALLAMBERGENOV  
SECTION EDITOR:  
Mukaddas KURBANBAEVA

Akmal SAIDOV, y.sc.d., prof., Acad.  
Qakhraman QURANBAYEV, s.sc.d., prof.  
Almagul BAYRIEVA, s.sc.d., (DSc)  
Zabikhulla SAIPOV, s.sc.n., (PhD)  
Zuhra REYMOVA, y.sc.d., (DSc)  
Karligash UMAROVA, y.sc.d., (DSc)  
Xəlil İsmayılov, ist. sc.d, prof  
Anvar ABDULLAYEV, ist.sc.d, dots.  
Gavkhar DURDIYEVA, arch.f.d., prof.  
Makset KARLIBAYEV, t.f.d., k.i.x.  
Kazimbek TUKHTABEKOV, t.f.d., (PhD)  
Umid BEKMUHAMMAD, t.f.d., (PhD), k.i.x.  
Konul Bunyadzoda, Doctor of Philosophy,  
Azerbaijan National Academy of Sciences  
(AMEA) Corresponding Member  
Bakhtiyar KARIMOV, phil.sc.d., prof.  
Marat NIYOZIMBETOV, phil.sc.d.  
Alima BERDIMURODOVA, phil.sc.d.  
Zarifboy DOSIMOV, Phil.sc.d., prof.  
Olmos ULVI Binnatova , f.sc.d., prof.  
Daniyor YULDASHEV, Phil.sc.d (DSc)  
Sayyora SAMANDAROVA, associate professor, can.of phil.  
Bekposhsha RAKHIMOVA, can. of phil.sc, dots (PhD)  
Azamat PRIMOV, can. of phil.sc, dots (PhD)  
Vahab Rakhmonov, f.sc.n., dots.  
Farrux Abbas oglu Rüstamov, p.sc.d, prof.  
Kazakboy YOLDASHEV, p.sc.d., prof.  
Safo MATJONOV, p.sc.d., prof.  
Qakhraman IBADULLAYEV, p.sc.d., (DSc)  
Masharib ABDULLAYEV, of art.sc.c., (PhD), k.i.x.  
Nilufar KOSHANOVA, ped.f.f.d., (PhD)  
Odilbek RADJAPOV, phil.sc..d., (PhD)  
Gayrat MAMBETKADIROV, s.sc.d.  
Rana Hamid qızı Qadirova, Psychol.sc.d., prof  
Nargis ATABAYEVA, Psychol.sc.d., (DSc)  
Dilafruz QARSHIEVA, Psychol.scd., (DSc)  
Qosimboy KABULOV Psychol.sc.d., (DSc)

### COMMUNITY COUNCIL:

Sirojiddin SAYID  
Muhammad Ali  
Kengesboy KARIMOV  
Iqbal MIRZA  
Kurban SHONIAZOV  
Orozboy ABDURAHMANOV  
Muratboy JUMANOV

### Literary Advisor:

Gulistan MATYOQUBOVA

### Painter:

Alibek ABDURAHMANOV

### Page editor:

Ghiyaziddin O'NAROV

Our address: Republic of Karakalpakstan,  
Beruni district.

Website: <https://jurnal.tamaddunnuri.uz>

e-mail: [tamaddunnuri1@gmail.com](mailto:tamaddunnuri1@gmail.com).

Telegram channel: <https://t.me/tamaddunnuri>

Phone: (+99888) 036 00 55, (+99897) 355 75 40.



"Tamaddun nuri " magazine is

indexed in the Google Scholar base. This helps to increase the scientific prestige of the Journal and to promote the scientific work of the authors on a large scale.

Through Google Scholar, researchers and scientists will be able to search and link articles published in the Journal "Tamaddun nuri".



Crossref DOI

The editorial board is an official member of Crossref DOI and has the prefix 10.69691 DOI. Each publication and scientific article is assigned an individual Crossref DOI number.

Paper size 60x84 ¼. Publisher's scoreboard 6.5. The index is 960. ISSN 2181-8258.

It was published in the printing house of "ADAD PLUS" LLC. The number is 300 pieces.

Chilonzor street, 28, Tashkent city. 2024, No. 9 (60).

This issue was paged on the computer of "Tamaddun Nuri" editorial office. Order #24. When copying from the magazine, it must be noted that it was taken from "Tamaddun Nuri". The authors are responsible for the accuracy of the information in the text and advertisements. Manuscripts received by the editors will be edited, not reviewed, and not returned to the author.

FOLLOW US ON SOCIAL MEDIA BELOW:



## GLOBALLASHUV SHAROITIDA TALABALAR BQ'SH YAQTINI SAMARALI TASHKIL QILISHNING PEDAGOGIK SHARTLARI

*Koshanova Nilufar Maksudovna, Chirchiq davlat pedagogika universiteti dotsenti, (PhD)*

*To'rayev Azamat Maqsudovich, Chirchiq davlat pedagogika universiteti mustaqil tadqiqotchisi*

## PEDAGOGICAL CONDITIONS OF EFFECTIVE ORGANIZATION OF STUDENTS' FREE TIME UNDER GLOBALIZATION

Koshanova Nilufar Maksudovna, associate professor of Chirchik State Pedagogical University, (PhD)

To'rayev Azamat Maksudovich, independent researcher of Chirchik State Pedagogical University



[https://orcid.org/0009-0002-  
6861-6568](https://orcid.org/0009-0002-6861-6568)  
e-mail:  
[koshanovanilufar512@gmail.com](mailto:koshanovanilufar512@gmail.com)



## ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ УСЛОВИЯ ЭФФЕКТИВНОЙ ОРГАНИЗАЦИИ СВОБОДНОГО ВРЕМЕНИ СТУДЕНТОВ В УСЛОВИЯХ ГЛОБАЛИЗАЦИИ

*Кошанова Нилуфар Максудовна, доцент Чирчикского государственного педагогического университета, (PhD)*

*Тораев Азамат Максудович, независимый научный сотрудник Чирчикского государственного педагогического университета*

**Annotatsiya:** Tadqiqot ishimizda bo'sh vaqt tushunchasining ijtimoiy-falsafiy tahlili, talabalar bo'sh vaqtini tashkil qilish shakllari, bo'sh vaqtini oqilona loyihalashning samarali jihatlari tahlil qilingan.

**Kalit so'zlar:** globalashuv sharoiti, "bo'sh vaqt", konstruktiv faoliyat, akademik muvaffaqiyat, ma'naviy rivojlanish, samaradoqlik, innovatsiya.

**Abstract:** In our research, socio-philosophical analysis of the concept of free time, forms of organization of free time of students, effective aspects of rational design of free time are analyzed.

**Key words:** globalization conditions, "free time", constructive activity, academic success, spiritual development, efficiency, innovation.

**Аннотация:** В нашем исследовании анализируются социально-философский анализ понятия свободного времени, формы организации свободного времени студентов, эффективные аспекты рационального планирования свободного времени.

**Ключевые слова:** условия глобализации, «свободное время», созидательная деятельность, академические успехи, духовное развитие, эффективность, инновации.

**KIRISH.** Har bir davrda inson faoliyatining ijtimoiy ahamiyati va samaradorligini chuqurroq tushunish uchun uning vaqtini boshqarish, sarflash

madaniyatini o'rghanish zarur. Insoniyatning bo'sh vaqtga bo'lgan munosabatining o'zgarishi globalashuv sharoitida jamiyatda sodir bo'layotgan,

ijtimoiy-madaniy, hamda, texnologik o'zgarishlar bilan belgilanadi.

Bo'sh vaqt muammosi bugungi kunda dolzarb muammolardan biri bo'lib, ijtimoiy-pedagogik faoliyatning muhim yo'nalishlaridan biri sifatida shaxsning jismoniy, aqliy, ma'naviy va hissiy rivojlanishi sodir bo'ladigan makondir.

Jamiyatning eng katta qismi bu shubhasiz yoshlardir. Yoshlik bu o'z-o'zini anglash uchun optimal davr hisoblanadi. Bu davrda asosan "Men kimman?", "Nimaga erishmoqchiman?", "Qanday harakatlanishim kerak?" qabilidagi savollar paydo bo'ladi. Yoshlikdagi faoliyatning mas'uliyati shundaki, insonning butun kelajakdagi hayotini belgilaydigan qarorlar qabul qilinadi.

Ammo biz hozirgi ko'pchilik yoshlarning vaqtga bo'lgan aksiologik munosabatini qoniqarli ahvolda deya olamaymiz. Ayniqsa oliy ta'lif muassasalarida ba'zi bir talabalarimizning vaqtini o'tkazish amaliyotini o'rnat qilib, ideallashtirilib ko'rsatish mumkun bo'lsa, ikkinchi guruh talaba-yoshlarning vaqtini boshqarish amaliyotiga salbiy baho berish mumkun. Shu jihatdan insoniyat taraqqiyotining muayyan bosqichida jamiyat taraqqiyoti qonuniyatlarning mohiyatini aks ettiruvchi bo'sh vaqtini o'tkazish amaliyotini o'rghanish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

**ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYASI.** Mahalliy tadqiqotchilardan N.Avulova o'smir-yoshlar bo'sh vaqtini to'g'ri shakllantirish muammosini bir qator ilmiy nashrlarida aks ettiradi.

**MDH tadqiqotchilaridan** O.V.Larshin, V.E. va b., xorijiy olimlardan R.Gvardini, M.Parmentye kabi ko'plagan olimlar bo'sh vaqt bilan bog'liq muammolarni o'rganganlar. Tadqiqot ishimizda analiz, sintez, qiyosiy tahlil metodlaridan foydalanildi.

Shuni alohida ta'kidlashimiz lozimki, mamlakatimizda bo'sh vaqtini loyihalash asosida talabalar akademik yutuqlarini yaxshilash masalasi yetarli darajada o'rganilmagan.

**MUHOKAMA.** "Bo'sh vaqt" tushunchasining zamonaviy konsepsiysi ancha oldin paydo bo'lishiga qaramasdan dam olish tushunchasi sanoat davrida paydo bo'lgan. Ko'pchilik kishilar bo'sh vaqtini hech narsa qilmaslik bilan bog'liq bo'lgan vaqtning erkin makoni sifatida tushunishadi. Xo'sh, "bo'sh vaqt" o'zi nima? Uning qanday xususiyatlari mavjud?

Bo'sh vaqt insonning o'zini anglashi, o'z qobiliyatlari, kamchiliklarini tushunib yetishlari uchun qulay hudud hisoblanadi. M.B.Zatsepina bo'sh vaqtligi faoliyatni shaxsning o'zi tanlagan barcha turdag'i faoliyati sifatida shaxsiy ehtiyoj va manfaatlar bilan belgilanishi va tashqi omillardan xoli bo'lishi bilan xarakterlanishini ta'kidlaydi[5].

Bo'sh vaqt jamiyatda shaxsning har tomonlama kamolotida ta'sirga egaligi tufayli uni tartibga solish muammosini yuzaga keltiradi. Bo'sh vaqt sohasi bajarilishi majburiy vazifalardan ozod bo'lish bilan tavsiflanadi, shuningdek, bunda shaxsga institutsional bosim zaiflashadi. "Bo'sh vaqt" murakkab ijtimoiy, iqtisodiy, falsafiy va pedagogik muammodir. Bo'sh vaqt oila va ta'lif tizimidagi rollaridan tashqari yangi ijtimoiy rollarni egallash, erkin va mustaqil harakat qilish asosida o'zini namoyon qilish bilan tabiiy ehtiyojlarini to'liq ochib beradigan soha hisoblanadi.

N.Avulova[1] o'z tadqiqot ishida bo'sh vaqtning ikkita muhim tomoni, yana vazifasi mavjudligini ta'kidlaydi: -birinchidan, bo'sh vaqt insonning jismoniy kuchini tiklashga qaratilgan dam olish vaqt; -ikkinchidan, insonning shaxsiy fazilatlari jismoniy va ma'naviy rivojlanishini ta'minlaydigan vaqt.

Demak, bo'sh vaqtning ikkita muhim vazifasi mavjud. Ammo, bugungi yoshlarimizning darsdan tashqari bo'sh vaqtlarini internet tizimida maqsadsiz o'tkazishlari, ya'ni xayoliy bo'sh vaqt shakliga asosiy urg'u berishi, vaqtida dam olmasliklari sababli bo'sh vaqtning ikkita muhim funksiyasi ham amalga oshirilmayapti. Rus tadqiqotchilari bo'sh vaqtini insonning ijodiy faoliyat bilan shug'ullanish uchun eng qulay makon sifatida ta'riflashadi.

Bo'sh vaqt dan foydalanish madaniyatiga asoslangan shaxsiyat turlari:

- konstruktiv(faol); -oqilona iste'molchi; -halokatli buzg'unchi.

Bo'sh vaqtning quyidagi asosiy belgilarini ajratib ko'rsatish mumkun:

- fiziologik, ijtimoiy va psixologik jihatdan aniq ifodalanadi;- rasmiy bo'lm asdan, erkin, faol, ijodiy faoliyati o'z ichiga oladi; - shaxsiyatni shakllantiradi va rivojlantiradi, shu orqali insonning yashirin salohiyati, hamda mayllari ochib beriladi; - shaxsning erkinlik va mustaqillikka bo'lgan ehtiyojini shakllantiradi; - tabiiy iste'dodlarni ochishga va hayot uchun foydali bo'lgan

ko'nikmalarini egallahsga yordam beradi; - insonlarda ijodiy tashabbusini rag'batlantiradi; - qadriyat yo'nalishlari, hamda munosabatlarini shakllantirishga yordam beradi; - obyektiv o'zini o'zi baholashga, atrofdagi dunyoni yetarli darajada idrok etishga yordam beradi; - ijobjiy "men" tushunchasini shakllantiradi; - o'z-o'zidan qoniqish, ajoyib kayfiyat va shaxsiy zavq, o'z faoliyatining yakuniy natijasidan qoniqishni ta'minlaydi; - jamiyatdagi hatti-harakatlar standari va normalarini shakllantiradi.

Jamiyatning bo'sh vaqtini – ma'naviy takror ishlab chiqarishning zaruriy shartidir. Bo'sh vaqtini shaxs va ijtimoiy guruhning ijodiy rivojlanishi uchun ijtimoiy-madaniy makon sifatida ahamiyatini alohida ta'kidlash zarur. M.G.Bushkanets fikricha shaxsnинг ma'naviy olami rivojlanishini ta'minlashda bo'sh vaqtini o'zi va o'zgalar manfaati yo'lida ishlatishga o'rgatish, bo'sh vaqtini o'tkazish ko'nikmalarini to'g'ri shakllantirish, tuzilmani modellashtirish zarur[3].

Bo'sh vaqtini ijtimoiy foydali va xayoliy vaqtga ajratish mumkun[2]. O'z vaqtini maqsadsiz va mazmunsiz o'tkazish bu xayoliy vaqt hisoblanadi. Mutaxassislar yoshlarning vaqtlarini ma'nosiz o'tkazishlarini, ya'ni, xayoliy bo'sh vaqtini o'ziga qarshi zo'ravonlik sifatida baholashadi. Talabalar juda ko'p jismoniy, psixologik va intellektual kuch sarflaydilar. Bu jabhada bo'sh vaqt stressdan xalos bo'lishga, yo'qotilgan kuchni qayta tiklashga yordam beradi. Yoshlar keksa avlodga nisbatan harakatchan bo'Iganliklari uchun bo'sh vaqtleri faol va xilma-xildir. Shu sababli ham yoshlar yangi g'oyalarga va ko'proq innovatsiyalarga muhtoj. Tadqiqotlarimiz davomida talabalarning bo'sh vaqtlarini o'tkazishning asosiy xususiyatlariiga jamiyatda sodir bo'layotgan jarayonlar, salomatlik holati, ijtimoiy ahvoli muhim ahamiyatga ega ekanligini o'rgandik. Talaba-yoshlarning ko'pchilig'i balog'atga yetib o'zini-o'zi boshqarish yoshiga yetgan bo'lsa-da, ammo ular faoliyatida muvozanatning yo'qligi, o'quv jarayoni rejimining buzilishi, ta'llim imkoniyatlarining va tayyorgarlik darajasiga mos kelmasligi, ularning intellektual-ma'naviy rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Mazkur muammolar ularning vaqt sarfi bo'yicha ko'nikmalarini to'g'ri shakllantirishni talab qiladi. Yoshlarning bo'sh vaqtidan qanday foydalanishi davlat strategiyasining o'ziga xos ko'rsatkichi bo'lib, uning yechimi bilan ma'lum darajada ta'llim,

madaniyat, umuman olganda ijtimoiy institutlar shug'ullanishi lozim. Yoshlar hayotida bo'sh vaqt va uning namoyon bo'lishining turli shakllari o'z-o'zini anglashning asosiy yo'nalishlaridan biri hisoblanishi unga jiddiy e'tibor qaratish lozimligini angalatadi. Afsuski bo'sh vaqt faoliyat sohasining yuqorida qayd etilgan barcha afzalliklari hali yoshlarning u yoki bu turmush tarzining doimiy, odatiy ko'rsatkichlariga aylangani yo'q.

Shu o'rinda talabalar sog'lig'ini yomonlashtiradigan xavfli omillarga quyidagilar kiradi: yomon odatlar; sifatsiz, tartibsiz va muvozanatsiz ovqatlanish; tartibsiz kun tartibi; mashg'urollarning haddan tashqari yuklanishi va gipodinamiya; kundalik hayotda turli xil faoliyat turlarining (ta'llim, o'yin va mehnat) mantiqsiz almashinuvi va h.z.

Yoshlarning bo'sh vaqtini o'tkazish texnologiyalarida quyidagi tizimlarni ajratib ko'rsatish mumkun: -tashkiliy (yoshlarning bo'sh vaqtlarini o'tkazishda muassasa tuzilmasini belgilash); -uslubiy (bo'sh vaqtini tashkil qilish va amalga oshirishda yangi texnologiyalar ishlab chiqish); -ijtimoiy-psixologik; -boshqaruv.

Bo'sh vaqtida ijtimoiy ahamiyatga ega bo'Igan faoliyatning afzal bo'lishi uchun quyidagilar zarur hisoblanadi: -yoshlarga bo'sh vaqtini tashkil qilish ko'nikmalarini izchil o'rgatish; -innovatsiyalarni o'rganish va o'zlashtirish uchun sharoit yaratish; -axborotni qayta ishslash va uzatish; -bilimlarni iste'mol qilishning interaktiv shakllarini kiritish va hokazo. Yoshlarning bo'sh vaqtini o'tkazishga bo'Igan xohish-istiklarini o'rganish va shu asosda bo'sh vaqtini mazmunli tashkil qilish vositasi bo'lib xizmat qiladi.

Yoshlarning bo'sh vaqtini tashkil qilishning quyidagi yo'nalishlari mavjud: -ommaviy axborot vositalarida bo'sh vaqt dasturlari; -ommaviy axborot vositalarida madaniyat masalalarini yoritish; -yoshlarning bo'sh vaqtlarini o'tkazish dasturlarini ommalashtirish; -zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalri asosida bo'sh vaqtini tashkil qilishning samarali shakllarini rivojlantirish; -elektron kutubxonalar, barcha malakaga o'rgatishdga mo'ljalangan zamonaviy axborot texnologiyalarini o'zlashtirishdagi multimedya markazlari.

Talabalarning darsdan tashqari bo'sh vaqtlarini faollik darajasiga ko'ra bir nechta turlarga ajratish mumkun: faol (dam olish bilan

bog'liq barcha jahbada); kamroq faol (darsdan tashqari vaqtda); yetarli darjada faol emas (har kim qayerga ketsa, men ham boraman tamoyiliga ko'ra ish ko'radi, asosan ta'lif muassasalari devorlarida bo'sh vaqtini o'tkazish bilan shug'ullanadi). Bo'sh vaqtini samarali boshqarish stresslarni kamayishiga, muvozanantni saqlashga va hayot sifatini yaxshilashga yordam beradi[4].

**O'rganishlarimiz davomida quyidagi tavsiyalar ishlab chiqildi:**

- mamlakatimiz ta'lif tizimida bo'sh vaqt pedagogikasini rivojlantirishga e'tibor qaratish zarur; -talaba-yoshlarga bo'sh vaqtini samarali tashkil qilish shakllari bo'yicha OTM professor-o'qituvchilari tomonidan davra suhbatlarini tashkil qilish kerak; -vaqtdan foydalanishning nafaqat miqdori, balki, mazmun-mohiyati, bilim, qadriyatlar, me'yorlar, hayot namunalari bo'la olishiga, sifatiga ham e'tibor qaratish lozim; -bo'sh vaqtini tashkil qilishning samarali shakllari bo'yicha uslubiy qo'llanmalar tayyorlash maqsadga muvofiqdir.

**XULOSA.** Bo'sh vaqtini to'ldirish bo'yicha talaba yoshlarimiz barqaror qiziqish va ehtiyojlarga ega emas. Shu sababli aksariyat talabalar o'z faoliyatida asosan xayoliy bo'sh vaqt shaklidan foydalanmoqda. Ammo bu usul yoshlarimiz jismoniy va aqliy rivojlanishida har doim ham ijobjiy natija bermaydi. Shu sababli mamlakatimizda bo'sh vaqt pedagogikasini rivojlantirishga jiddiy e'tibor qaratish zarur. Demak, o'sib kelayotgan avlodning jismoniy va ma'naviy rivojlanish uchun bo'sh vaqtini oqilona tashkillashtirish hal qiluvchi ahamiyatga ega. Chunki, ijtimoiy-iqtisodiy hayotimizdagi muammolar bo'sh vaqt makonidan to'g'ri foydalana olmasligimiz bilan bevosita bog'liq. Bo'sh vaqt faoliyati shaklining to'g'ri tanlanishi talabalar akademik yutuqlarining yaxshilanishiga faol ta'sir ko'rsatadi. Sababi bo'sh vaqt bir tomonidan inson tomonidan yo'qotilgan kuchini qayta tiklasa, ikkinchi tomonidan uning jismoniy va ma'naviy rivojlanishi uchun qulay makondir. Mazkur jarayonda ta'lif muassasasi talaba yoshlarning bo'sh vaqtlarini ularning har tomonlama rivojlanishiga mos ravishda tashkil qilinishiga uslubiy jihatdan ko'mak berishi lozim.

#### **ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. N.Avulova. O'quvchi kun tartibini tashkil qilish muammolari//Ta'lif, fan va innovatsiya.1-son,2023-yil.-B.212-216.

2. Ариарский М.А. Прикладная культурология. СПб: Эго, 2001. 287 с.
3. Буева Л.П.Человек: деятельность и общение. М.:Мысл,1978.-С.20.
4. Brajsa-Zganec A, Marina Merkas M, Sverko I. Quality of life and leisure activities: how do leisure activities contribute to subjective well-being? Soc Indic Res. 2011;102(1):81–91. <https://doi.org/10.1007/s11205-010-9724-2>.
5. Зацепина, М.Б. Формирование основ культуры ребенка средствами культурно-досуговой деятельности. Автореф. дис. доктора. пед. наук. М., 2005, 44 с.
6. Koshanova N.M. Zamoniaviy jamiyatda intellektual madaniyatning rivojlanishi:muammo va imkoniyatlar//Ta'lif va innovatsion tadqiqotlar.2023/12.-B.208-212.
7. Koshanova N.M. Socio-philosophical analysis of the phenomenon of "cultural crash"/European Science Methodical Journal.-2024.T.2.-№6.C.477-480.
8. Koshanova N.M., Ismoilova N.S.Q. Dunyoning barqaror rivojlanishiga gender assimetriyasining salbiy ta'siri//Academic research in educational sciences.-2023.-T. 4.-№4.-C. 117-125.
- 9.M.Sh. Toshtemerova, B. Ahmadjanov, N. Koshanova. Structure and mechanisms of action of the educational cluster//International Journal of Psychological Rehabilitataion, 2020/7. -P.8104-8111.
10. Adullayeva, M. H. (2024). Develop the secrets of forming a perfect memory and remembering in education. European Science Methodical Journal, 2(6), 419-426.
11. Sadullayeva M. H. Develop the secrets of forming a perfect memory and remembering in education //European Science Methodical Journal. – 2024. – T. 2. – №. 6. – C. 419-426.
12. Shokirovna I. F. Zamoniaviy oqituvchi davr talabi //Pedagogs jurnali. – 2022. – T. 8. – №. 3. – C. 68-72.
13. Курбанбаева, М. (2023). Важность формирования навыков самостоятельного мышления при подготовке конкурентоспособных кадров. Tamaddun nuri jurnali, 5(44), 95-96.